

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

SJIF 2021: 5.723

2021/03

VOLUME 2

ISSUE 3



RESEARCHBIB

ACADEMIC RESOURCE INDEX



CYBERLENINKA



We increase scientific
potential together!

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences



TOGETHER WE REACH THE GOAL



DIN PSIXOLOGIYASINING SHAXS TARBIYASIDAGI O'RNI

Manzura Mustafo qizi Nazarova

Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada din tushunchasining mohiyati, uning inson hayotida tutgan o'rni, dinning vazifalari, bugungi globalashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda dinning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Din, ishonch, e'tiqod, qadriyat, komil inson, integratsiya, kompensatorlik, legitimizatsiya.

THE ROLE OF RELIGIOUS PSYCHOLOGY IN PERSONAL EDUCATION

Manzura Mustafo kizi Nazarova

Teacher of the Department of Psychology, Bukhara State University

ABSTRACT

In this article discusses about the essence of the concept of religion, its role in human life, the functions of religion, the importance of religion in the upbringing of a person in a period in which today's globalisation process is intensified.

Keywords: Religion, trust, value, perfect human, integration, compensation, legitimization.

KIRISH

O'zbekistonning mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan tarixiy yutuqlari yanada yangi va baland marralarni egallash uchun mustahkam zamin hozirladi. Istiqlol yillarida milliy va diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni kelajak avlod qalbi va ongiga singdirish, shuningdek, barkamol avlodni milliy va diniy qadriyatlarni qiyosiy tahlil qila olish hamda ruhan his qila olishiga katta ahamiyat berildi. Jamiyat turli ijtimoiy qatlamlar, etnik, madaniy guruhlardan iborat bo'lishini e'tiborda tutsak, ijtimoiy hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik masalasi jamiyat hayoti va davlat siyosatida muhim o'rin tutadi. "Din" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "ishonch", "e'tiqod"dir. Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda

etadigan maslak, qarash, ta'limotdir [Mo'minov A, Yo'ldashxo'jayev H, Rahimjonov D (2003). "Dinshunoslik".Mehnat.28b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda dinning shaxs tarbiyasidagi o'rnini o'rganish dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Jahon tadqiqotchilari din psixologiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, g'arb olimlaridan J.Pratt, G.Xall, D.Volf, D.Mayers o'z tadqiqotlarida din va psixologiyaning bolalar tarbiyasi va axloqida tutgan o'rnini tadqiq qilganlar. U.Jeyms, Z.Freyd o'z asarlarida din psixologiyasining nazariy jihatlarini yoritib berganlar. Dinning shaxs tarbiyasida tutgan o'rnini o'rganish bo'yicha rus olimlari ham tadqiqot olib borganlar. Xususan, E.I.Arinin, V.V.Davidov, A.G.Safronov asarlarida din va diniy qadriyatlarning shaxs hayotida tutgan o'rni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Mamlakatimiz olimlari esa o'z asarlarida din psixologiyasining ba'zi jihatlariga e'tibor qaratganlar. Masalan, N.Boymurodov "Amaliy psixologiya" o'quv qo'llanmasida dinning tarbiya jarayoniga ta'sirining ayrim jihatlarini yoritib bergan. F.Abdurahmanov, Z.Abdurahmanovalarning ilmiy tadqiqotlarida din psixologiyasining shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati o'rganilib, muayyan xulosalar bayon etilgan. S.K.Kamilov o'zining falsafa fanlari nomzodligi dissertatsiyasida globallashuv sharoitida din psixologiyasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan.

MUHOKAMA

Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ularni insonlar qalbi va ongiga singdiradi. Din kishilarni hamisha yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlagan, yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Aynan din tufayli xalqlarning ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligi omon saqlanib kelindi. Din psixologiyasining asosiy o'ziga xos jihati shundaki, unda dinning manbai insonni o'rab turgan dunyoda emas, balki, insonning o'zida, uning ichki dunyosida deb tushuntiriladi. Shu bilan birga, dinning asosi insonning aqliy emas, balki, hissiy-ruhiy dunyosidadir, deya ta'kidlanadi.

Din jamiyatda bir qator ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – kompensatorlik vazifasini bajaradi va shaxs shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik: Inson o'z

hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi iloji bo'lib ko'ringanida unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat seziladi.

Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik – integratsion vazifasi deyiladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotni qamrab olishga intiladi. Buning muntazamligini ta'minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, shuningdek, adabiyoti va san'atiga chambarchas bog'lanib keta olgan.

Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik – regulativ vazifani bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarining, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi.

To'rtinchidan, din aloqa bog'lashlik, birlashtiruvchilik – kommunikativ vazifani ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga intiladi. Bunda u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning o'z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o'zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din legitimizatsiya – qonunlashtiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Dinning bu funksiyasining nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni ham belgilaydi.

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy-nazariy jihatlarini ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulfano va dorulbaqo masalalariga o'z munosabatini bildirib turishdan iboratdir. Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo'ladi. Shuning uchun ham dinni o'rganish – bu insoniyatni o'rganish demakdir. Dinni insoniyatdan, insoniyatni dindan ajratib bo'lmaydi [Abdurahmanov F, Abdurahmanova Z (2011). "Din psixologiyasi". O'qituvchi.83b].

NATIJALAR

Hozirgi kunda milliy g'oya va istiqloq mafkurasini shakllantirish va yoshlar ongiga singdirishda dinni to'g'ri hamda tahliliy o'rganish dolzarb masalalardan biriga

aylandi. Globallashuv jarayoni bugungi kunda g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda dinni o'ziga niqob qilib olib, uni mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda kuchli vositasiga aylantirishga urinayotgan kuchlar soni oshganligi hech kimga sir emas. Din va diniy qadriyatlar kishilarni hamisha yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlagan hamda muqaddas e'tiqodlarga asoslanib, shaxsda yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan, insoniyatni komillikka da'vat etuvchi buyuk ta'limot bo'lib kelgan. Biroq ayrim hollarda dinni soxtalashtiruvchilar, undan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar ham mavjudligini, ayni ana shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojialarni keltirib chiqarishi mumkinligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Afsuski, diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, vayronkor g'oyalarni o'zlariga maqsad qilib olgan kimsalar ham foydalanmoqdalar. Bu esa butun kishilik jamiyatiga, jumladan, mustaqil O'zbekiston davlatiga nisbatan turli tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu zo'ravonlikka asoslangan harakatlar nafaqat O'zbekiston, balki, jahonning barcha davlatlarining osoyishta yashashlariga rahna solmoqda. Dinni, xususan, islom dinini noto'g'ri talqin qilib, o'zining yovuz niyatini amalga oshirishda xalqning diniy qadriyatlaridan va dinga bo'lgan hurmatidan foydalanishga urinayotganlar katta muammolar keltirib chiqarayotgani bugun hech kimga sir emas. Ushbu muammolarni bartaraf etish, nafaqat islom dinining, balki, jahon dinlarining ham sof insonparvarlik tamoyillarini yuzaga chiqarish bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridagi nutqida butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblashni aytgan. "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi, islom dinini to'g'ri tashviqot qila olsak, xalqqa yetkaza olsak, boshqa davlatlarda islom dinini o'ziga niqob qilib, boshqa yo'llarga yurayotgan bolalar, shu terrorizm, diniy aqidaparastlik kabi narsalar bizga yot bo'lishi muqarrar"[Mirziyoyev Sh.M .(2017) BMTning 72-sessiyasidagi ma'ruzasi].—deya ta'kidladi Prezident

Shavkat Mirziyoyev BMT minbarida. O'z navbatida, O'zbekistonning dunyoviy davlat sifatida diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatining muhim prinsiplarini ham ko'rsatib bergan edilar. Unga ko'ra:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
 - diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
 - diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
 - ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;
 - dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik
- O'zbekistonning dasturulamal siyosati hisoblanmog'i lozim.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamoqchimizki, O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Din odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Milliy va diniy qadriyatlarni yaxshi bilmay, ularning hurmatini o'rniga qo'ymay turib, inson yuksak ma'naviyatli bo'la olmaydi.

REFERENCES

1. Muminov A, Yoldashkhujayev H, Rahimjonov D (2003). "Religious studies". (1) 27
2. Abdurahmanov F, Abdurahmanova Z (2011). "Psychology of religion". (2) 83
3. Mirziyoyev Sh.M (2017) report from the 72-th session of the UN.(3)
4. Khasanovna, S. D. (2021). EDUCATION OF FEELINGS WITH ARTISTIC WORDS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(ICDSIIL), 4
5. Сайдахметова, Д. Х. (2021). КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 2(1).